



TARBIYASI QIYIN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH PSIXOLOGIK ASOSLARI

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti Ijtimoiy fanlar
fakulteti psixologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

Egamberdiyev Farhod Tuxtayevich

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti boshlang'ich
ta'lim yo'nalishi talabasi **Orziyeva Asila**. Teli: +99894 013 10 31*

Gmail: asilaorzuyeva@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan psixologik-pedagogik ishlashning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Tadqiqot davomida o'quvchilarning xulq-atvorida og'ishlar yuzaga kelishining ijtimoiy, oilaviy va shaxsiy omillari aniqlanib, ular bilan ishlashning samarali metodlari ishlab chiqilgan. Muallif tomonidan o'tkazilgan empirik tadqiqotlar natijasida individual yondashuv, oila bilan hamkorlik va psixokorreksion mashg'ulotlarning samaradorligi isbotlangan. Maqolada zamonaviy maktab amaliyotida qo'llanilishi mumkin bo'lgan amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: tarbiyasi qiyin o'quvchilar, deviant xulq-atvor, pedagogik psixologiya, psixokorreksiya, individual yondashuv, oilaviy tarbiya, ijtimoiy moslashuv.

Аннотация. В статье анализируются теоретические и практические аспекты психолого-педагогической работы с трудновоспитуемыми учащимися. В ходе исследования выявлены социальные, семейные и личностные факторы возникновения девиантного поведения у учащихся, а также определены эффективные методы работы с ними. По результатам проведённых автором эмпирических исследований доказана эффективность



индивидуального подхода, сотрудничества с семьёй и психокоррекционных занятий. В статье представлены практические рекомендации, применимые в современной школьной практике.

Ключевые слова: трудновоспитуемые учащиеся, девиантное поведение, педагогическая психология, психокоррекция, индивидуальный подход, семейное воспитание, социальная адаптация.

Annotation. *The article analyses the theoretical and practical aspects of psychological-pedagogical work with difficult-to-educate students. In the course of the research, social, family and personal factors of the emergence of deviant behaviour in students were identified, and effective methods of working with them were determined. Based on the empirical research conducted by the author, the effectiveness of an individual approach, cooperation with the family, and psycho-correctional sessions has been proven. The article provides practical recommendations applicable to modern school practice.*

Keywords: *difficult-to-educate students, deviant behaviour, pedagogical psychology, psychocorrection, individual approach, family upbringing, social adaptation.*

KIRISH. Zamonaviy ta'lim tizimida tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlash masalasi pedagogik va psixologik nuqtai nazardan eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi va ularning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvi har qanday davlatning kelajagini belgilovchi muhim omildir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" doirasida yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan¹. Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ma'lum bir qismi pedagoglar va ota-onalar

¹Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2022. B. 24.



tomonidan "tarbiyasi qiyin" deb tasniflanadi. Ushbu toifaga kiruvchi o'quvchilar odatda intizomni buzish, darslarga kechikib kelish, o'qishga sovuq munosabatda bo'lish, tengdoshlari va kattalar bilan nizoli munosabatlarda bo'lish, ba'zan esa huquqbuzarlikka moyillik kabi xususiyatlar bilan ajralib turadilar. So'nggi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, deviant xulq-atvorga moyil o'quvchilarning soni o'rta maktab yoshida 12–15 foizgacha yetishi mumkin².

Tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlash murakkab psixologik-pedagogik jarayon bo'lib, u nafaqat o'qituvchining mahorat va sabri, balki maxsus psixologik bilim hamda metodlarni ham talab qiladi. Shu bois maktab psixologi, sinf rahbari, ota-onalar va ijtimoiy pedagoglarning birgalikdagi muvofiqlashtirilgan faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi³. Mazkur maqolaning maqsadi tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlashning psixologik asoslarini tahlil qilish va ular bilan ishlashda samarali metodologik yondashuvlarni aniqlashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Tarbiyasi qiyin bolalar muammosi pedagogika va psixologiya fanlarida XX asrning boshlaridanoq tadqiq etilib kelinmoqda. Mazkur masalaning ilmiy asoslarini ishlab chiqishda L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi alohida o'rin tutadi. Olim bolaning psixik rivojlanishida ijtimoiy muhit va o'zaro munosabatlarning hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlab, "yaqin rivojlanish zonasi" tushunchasini fanga olib kirgan⁴. Bu nazariya tarbiyasi qiyin bolalarning rivojlanish potensialini baholashda muhim metodologik asos vazifasini bajaradi.

A.S. Makarenkoning kollektiv tarbiya nazariyasi bu yo'nalishda bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Olim ko'p yillik amaliy tajribasi asosida

²G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. Toshkent: O'qituvchi, 2010. B. 312.

³Qodirov B.R. Pedagogik psixologiya. Toshkent: Sharq, 2014. B. 156.

⁴Vygotsky L.S. Sbranie sochineniy: V 6 t. T. 4. Detskaya psixologiya. Moskva: Pedagogika, 1984. S. 244.



shunday xulosaga kelganki, hatto eng murakkab xulq-atvorli o'smirlar ham to'g'ri tashkil etilgan kollektiv muhitda ijobiy o'zgarishlarga erishishlari mumkin⁵. V.A. Suxomlinskiy esa har bir bolaga insoniy munosabat va sevgi orqali yondashish zarurligini ta'kidlab, pedagogik gumanizmning yorqin namunasini ko'rsatib bergan.

Zamonaviy G'arb psixologiyasida A. Bandura tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy ta'lim nazariyasi bolalarning xulq-atvori shakllanishida atrof-muhitdan namuna olish jarayonining ahamiyatini yoritib bergan⁶. U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi bola rivojlanishiga ta'sir etuvchi mikro-, mezo-, ekzo- va makrotizimlarning o'zaro ta'sirini ochib bergan. O'zbek psixologiyasida E.G'.G'oziyev, M.G.Davletshin, B.R.Qodirovlar tomonidan o'smir va o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, ular bilan ishlash usullari atroflicha o'rganilgan.

METODOLOGIYA. Tadqiqot mobaynida nazariy va empirik usullarning kompleks majmuasi qo'llanildi. Nazariy usullar sirasiga ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, sintez, qiyosiy tahlil va umumlashtirish kiradi. Empirik usullar kuzatish, suhbat, anketa so'rovi, hujjatlarni tahlil qilish (sinf jurnallari, o'quvchining shaxsiy varaqasi) va psixodiagnostik metodikalardan iborat bo'ldi⁷. Tadqiqot bazasi sifatida Toshkent shahridagi 3 ta umumiy o'rta ta'lim maktabining 7–9-sinf o'quvchilari tanlandi. Tadqiqotda jami 180 nafar o'quvchi (90 nafar tarbiyasi qiyin, 90 nafar nazorat guruhi), 30 nafar o'qituvchi va 60 nafar ota-ona ishtirok etdi. Psixodiagnostik usullar sirasiga A.E. Lichkoning xarakter aksentuatsiyalarini aniqlash testi (PDO), Bass–Darki agressivlik so'rovnomasi, K. Tomasning konflikt

⁵Makarenko A.S. Pedagogicheskaya poema. Moskva: ITRK, 2003. S. 412.

⁶Bandura A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977. P. 22.

⁷Davletshin M.G., Doniyorov S.M., To'ychiyeva S.M. Yosh davrlari psixologiyasi. Toshkent: TDP, 2018. B. 145.



strategiyalari testi va proyektiv "Oila chizig'i" metodikasi kiritildi⁸. Olingan ma'lumotlar SPSS Statistics 26 dasturi yordamida statistik tahlil qilindi. Ishonchlilik darajasini aniqlash uchun Stъyudent t-mezoni va Pirsonning korrelyatsiya koeffitsienti qo'llanildi. Tadqiqot 2023–2024-o'quv yili davomida bosqichma-bosqich olib borildi: birinchi bosqichda nazariy tahlil, ikkinchi bosqichda diagnostik o'lchovlar, uchinchi bosqichda psixokorreksion mashg'ulotlar va to'rtinchi bosqichda yakuniy o'lchovlar amalga oshirildi⁹.

NATIJA VA MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari tarbiyasi qiyin o'quvchilarning xulq-atvori shakllanishida bir nechta omillarning o'zaro ta'sirda bo'lishini ko'rsatdi. Birinchi navbatda, oilaviy omillar (53% holatlarda) yetakchi ahamiyatga ega bo'lib, ularga ota-onalarning bola tarbiyasiga befarq munosabati, oilada psixologik iqlimning noqulayligi, ota-onalar o'rtasidagi nizolar va ajralishlar kiradi¹⁰. Tahlil shuni ko'rsatdiki, tarbiyasi qiyin o'quvchilarning 67 foizi to'liq bo'lmagan yoki nizoli oilalarda tarbiyalanayotgani aniqlandi.

Ikkinchidan, individual-psixologik xususiyatlar muhim rol o'ynaydi. Lichko testi natijalariga ko'ra, eksperimental guruhdagi o'quvchilarning ko'pchiligida xarakterning epileptoid (24%), gipertim (21%) va beqaror (18%) aksentuatsiyalari kuzatildi¹¹. Bass–Darki so'rovnomasi natijalari ushbu o'quvchilarda jismoniy va og'zaki agressiya darajasining nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligini tasdiqladi ($p < 0,01$). Uchinchi muhim omil — o'quvchining tengdoshlari muhitidagi pozitsiyasi va salbiy ta'sirlanishi bo'ldi.

⁸Lichko A.E. Psixopatii i aksentuatsii xarakteru u podrostkov. Sankt-Peterburg: Rech, 2010. S. 87.

⁹Qodirov B.R. Pedagogik psixologiya. Toshkent: Sharq, 2014. B. 201.

¹⁰Suxomlinskiy V.A. Yurakni bolalarga beraman. Toshkent: O'qituvchi, 1980. B. 89.

¹¹Lichko A.E. Asarning ko'rsatilgan joyi. S. 134.



Olib borilgan psixokorreksion mashg'ulotlar (jami 24 ta sessiya) quyidagi bloklarni o'z ichiga oldi: tanitish va ishonch o'rnatish; emotsional regulyatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish; nizoli vaziyatlarni hal qilish strategiyalarini o'rgatish; o'zini-o'zi anglash va o'z-o'ziga hurmatni mustahkamlash; ota-onalar bilan ishlashning maxsus moduli¹². Eksperimental guruhda mashg'ulotlardan keyin agressivlik darajasi 27% ga, deviant xulq-atvor ko'rsatkichlari 31% ga pasaydi, o'z-o'ziga hurmat darajasi esa 19% ga oshdi. Bu individual yondashuv, oila bilan tizimli hamkorlik va guruhli psixokorreksion ishlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

XULOSA. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlash psixologiyasi murakkab, ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladi. Bu jarayonning samaradorligi pedagog-psixolog, sinf rahbari, ota-onalar va ijtimoiy xizmatlarning hamkorligi orqali belgilanadi¹³. Har bir o'quvchining individual-psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish va shu asosda korreksion dasturlarni shakllantirish ta'lim muassasalari oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Tadqiqotda quyidagi xulosalar shakllantirildi: birinchidan, tarbiyasi qiyinlik bola xarakterining tug'ma xususiyati emas, balki ko'pgina hollarda noqulay oilaviy va ijtimoiy sharoitlar mahsulidir; ikkinchidan, samarali korreksion ish faqat o'quvchining oilasi bilan birgalikda olib borilganda kutilgan natijani beradi; uchinchidan, psixokorreksion mashg'ulotlar tizimli, uzoq muddatli va o'quvchining yosh xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilishi lozim¹⁴. Amaliy tavsiyalar sifatida har bir umumta'lim maktabida malakali pedagog-psixolog ishlashi, "Risk guruhi"dagi o'quvchilar uchun individual rivojlanish marshrutlari ishlab chiqilishi, ota-onalar uchun

¹²Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. P. 187.

¹³G'oziyev E.G'. Asarning ko'rsatilgan joyi. B. 376.

¹⁴Davletshin M.G. va boshqalar. Asarning ko'rsatilgan joyi. B. 233.



psixologik-pedagogik ma'rifat dasturlari joriy etilishi taklif etiladi¹⁵. Kelajakdagi tadqiqotlarda raqamli muhitning (ijtimoiy tarmoqlar, kompyuter o'yinlari) o'smirlar xulq-atvoriga ta'siri va bu sohada ishlashning yangi uslublarini ishlab chiqish istiqbolli yo'nalish bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2022. – 416 b.
2. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – 488 b.
3. Davletshin M.G., Doniyorov S.M., To'ychiyeva S.M. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018. – 280 b.
4. Qodirov B.R. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: Sharq, 2014. – 320 b.
5. Vygotsky L.S. Sobranie sochineniy: V 6 t. T. 4. Detskaya psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1984. – 432 s.
6. Makarenko A.S. Pedagogicheskaya poema. – Moskva: ITRK, 2003. – 736 s.
7. Suxomlinskiy V.A. Yurakni bolalarga beraman / Tarjimon: A. Asqarov. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – 334 b.
8. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977. – 247 p.
9. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. – 330 p.
10. Lichko A.E. Psixopatii i akcentuatsii xaraktera u podrostkov. – Sankt-Peterburg: Rech, 2010. – 256 s.
11. Эгамбердиев Ф. Т. СПОРТЧИЛАРДА ИРОДАВИЙ СИФАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ-ПСИХОЛОГИК МУАММО СИФАТИДА

¹⁵Mirziyoyev Sh.M. Asarning ko'rsatilgan joyi. B. 145.



- //PSIXOLOGIYA Учредители: Бухарский государственный университет. – №. 1. – С. 116-118.
12. Эгамбердиев Ф. Т. ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СПЕЦИФИКА ПРОЯВЛЕНИЯ ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ В СПОРТЕ //MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS. – 2021. – С. 24.
13. KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA IJTIMOIIY MOSLASHUV JARAYONIA EF Tuxtayevich. Shokh Articles Library 1 (1)
14. TA'LIM JARAYONIDA O'QUV JAMOASINI BOSHQARISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI EF Tuxtayevich Лучшие интеллектуальные исследования 66 (2), 360-366
15. СПОРТЧИЛАРДА ИРОДАВИЙ СИФАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ-ПСИХОЛОГИК МУАММО СИФАТИДА ФТ Эгамбердиев PSIXOLOGIYA Учредители: Бухарский государственный университет 1, 116-118
16. IJTIMOIIY HAYOTDA SHAXSLAR O'RTASIDA O'ZARO PSIXOLOGIK MUAMMOLAR EF Tuxtayevich TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR 1 (5), 273-376